

MUTAXASSISLIK FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘TKAZISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH

Adizova Sevara Yusupovna

katta o‘qituvchi

Buxoro muhandislik - texnologiya instituti

Boboqulov Diyorbek Anvarovich

talaba

Buxoro muhandislik - texnologiya instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mutaxassislik fanlaridan mashg‘ulotlarni o‘tkazishda innovatsion texnologiyalar asosida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va faoliyatlarini shakllantirish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: Innovatsiya, interfaol metod, mutaxassislik fani, kasbiy faoliyat, bilim, ko‘nikma, malaka.

APPLICATION OF INTERACTIVE METHODS WHEN CONDUCTING PRACTICAL TRAINING IN SPECIALTIES

Adizova Sevara Yusupovna

is a senior teacher

Boboqulov Diorbek Anvarovich

student

Bukhara Institute of Engineering and Technology

ABSTRACT

This article discusses the formation of their professional knowledge, skills and activities by using interactive methods on the basis of innovative technologies during the training of specialized subjects.

Keywords: Innovation, interactive method, specialty, professional activity, knowledge, skill, qualification.

KIRISH

Ta'lim jarayonini boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiya bugungi kunda eng ko'p qo'llanadigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Bu esa, 2017 – yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora –tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga asosan oliy ta'limni boshqarish davlat siyosatining bevosita ifodasidir.

O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishda ularning kasbiy kompetensiyalarini ortirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning kasbga moyilligi layoqatlari bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qitish jarayonining samarali bo'lishiga imkon yaratadi [1].

METODOLOGIYA

“Mashinasozlik texnologiyasi” mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni olib borishda interfaol metodlarni qo'llash talabalarning darsga qiziqishini ortiradi. Har bir talaba darsning mohiyatini tushunib olish uchun qo'yilgan muammoni chuqur anglab uni echishga harakat qilishi kerak [2]. Mashg'ulotni o'tkazishda talabalarni kichik guruhlariga ajratib berish ularning darsga qiziqishini ortirib muammoning echimini topishda faol qatnashishlarni ta'minlaydi, har biri uchun bahs - munozarada qatnashish huquqini beradi. Bir-biridan o'rganishga imkon tug'diradi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

NATIJALAR

Amaliy mashg'ulotni o'tashda interfaol metodlarni qo'llash uchun quyidagi tartib va ketma-ketlikda olib borilishi mumkin:

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'satkichlarini aniqlash va ularni yaxshilash uchun vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. Materialni shu tarzda tanlash kerakki, mavzuni o'rganishda talabalarning umumta'lim, umumkasbiy fanlaridan olgan bilimlaridan va tanlangan faoliyat bo'yicha oldindan egallagan ko'nikma va malakalaridan foydalanish imkonini berishi kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Bunda talabalar tabaqalashtirilgan holda “Texnologlar”, “Dastgohchilar” va “Nazoratchilar” guruhlariga ajratiladi. Guruhda ishlash talabalar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi.

4. Aniq yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish. Ushbu shakllangan “Texnologlar”, “Dastgohchilar” va “Nazoratchilar” guruhlariga o‘qituvchi tomonidan vazifalar belgilab beriladi:

- “Texnologlar” guruhiga: - Texnologik jarayonni ishlab chiqish.
- “Dastgohchilar” guruhiga: - Detalni yasash.
- “Nazoratchilar” guruhiga: - Detal sifatini nazorat qilish.

Talabalarga o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikma va malakasini shakllantirish maqsadida guruhlar bir-birlarining ishlarini muhokama qiladilar, ya’ni: “Texnologlar” guruhining ishi natijalarini, “Dastgohchilar” guruhi, “Dastgohchilar” guruhining ishi natijalarini “Nazoratchilar” guruhi, “Nazoratchilar” guruhining ishi natijalarini “Texnologlar” guruhi a’zolari muhokama etadilar.

5. Qo‘llab- quvvatlash va yo‘naltirish. Mutaxassislik fan o‘qituvchisi, guruhlar yoniga kelib ularning to‘g‘ri ishlayotganligini nazorat qiladi. Agar talabalar mashg‘ulotni noto‘g‘ri tartibda olib borayotgan bo‘lsa, ularga qo‘shimcha ko‘rsatma va yordam beradi.

6.Muhokama qilish va baholash. Har bir guruh o‘z ishi natijalariga nisbatan boshqa guruh bildirgan tanqidiy mulohaza va takliflarni o‘rganadi. Guruhlar yakuniy bosqichda ish natijalari bo‘yicha axborot beradilar. Topshiriqlarning qanday bajarilganligi va ishtirokchilarining faolligiga qarab, guruhlar va ayrim talabalar alohida baholanadi. Bunda talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmasining shakllanganligiga e’tibor qaratiladi. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

XULOSA

Interfaol metodlarini qo‘llash orqali, o‘qituvchi tomonidan talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga va boshqa shu kabi xususiyatlari o‘rganilsa, talabalarda boshqalar fikrini qadrlashga o‘z fikrini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, haq-huquqlarini anglab yetish kabi xususiyatlar shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘rinov U.A., Adizova S.Yu. Ta‘lim tizimida innovatsion faoliyat yondashuvi // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. Tadqiqot.uz. Toshkent, 2020. №5, 3-jild. ISSN 2181-9513. B.15-20.
2. Adizova S.Yu. Talabalarni yuqori texnologik korxonalaridagi kasbiy faoliyatga tayyorlash //“Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik pedagogik jihatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. (2023 yil 2-iyun) – T.: Toshkent 2023. B.447-450. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7994110>.
3. Adizova S.Yu Texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari // Ilim hám jámíyet. Ilmiy-uslubiy jurnal. Nukus, 2022. №1. B.3-5.